

## TASHQI QARZ VA UNI BOSHQARISH

**Qodirova Sug'diyona Umidjon qizi.**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada davlatning tashqi qarzi, hamda uni boshqarish jarayoni haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Xorijiy, sektor, qarz beruvchi, majburiyat, davlat tashqi qarzi, davlat byudjeti, moliya bozori, global iqtisodiyot*

Mamlakatning umumiy tashqi qarzi – mahalliy iqtisodiyotning xorijliklar (xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va boshqalar) oldidagi amaldagi, (ya'ni hali to'lovlari amalga oshirilmagan) kelajakda ma'lum bir muddatda qaytarilishi talab qilinadigan majburiyatlarini o'zida aks ettiradi. Tashqi qarz, davlat tashqi qarzi hamda xususiy sektor tashqi qarziga bo'linadi. Davlat tashqi qarzi, hukumat tomonidan jalb qilingan yoki uning kafolati ostida olingan tashqi qarzlarni o'z ichiga olsa, xususiy sektor tashqi qarzi, o'z navbatida, davlat majburiyat olmagan qarzlardan iborat. Qarz beruvchi tomonidan taqdim qilingan moliyaviy mablag' qarzning asosiy miqdori deb atalib, unga ma'lum foizda ustama hisoblab boriladi. Qarzning asosiy miqdoridan foydalanish evaziga qarz shartnomasiga amal qilish davrida qarz oluvchi tomonidan qarz beruvchiga hisoblangan ustama ko'rinishida foiz to'lovlari hamda qarzni qaytarish jadvaliga muvofiq asosiy miqdor to'lovlarini amalga oshiradi. Bunda tahliliy maqsadlarda tashqi qarzlar muddatlari bo'yicha qisqa (so'ndirilish muddati 1 yilgacha bo'lgan) hamda uzoq muddatli qarzlarga (so'ndirilish muddati 1 yildan uzoq bo'lgan) tasniflanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi bo'yicha jadvallar va tahliliy ma'lumotlar har chorakda Markaziy bank tomonidan foydalanuvchilarga taqdim qilinadi. Bunda O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi bo'yicha jamlangan ma'lumotlar Moliya vazirligi tomonidan, xususiy sektor tashqi qarzlari bo'yicha ma'lumotlar esa Markaziy bank tomonidan shakllantiriladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan moliyalashtirishning asosiy manbai – davlat byudjeti bo'lib, u mutanosib bo'lishi, ya'ni uning daromad va xarajatlari deyarli teng bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, davlat byudjeti quyidagi kabi ko'plab sabablarga ko'ra har doim ham mutanosib bo'lmasligi mumkin:

1. davlat byudjeti mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishini ham, hal etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarning sifat va ko'lamining o'sishini ham aks ettiradi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari aholi sonining o'sish sur'atlariga nisbatan past bo'lgan taqdirda ham davlat xarajatlari aholi turmushining yangi son va sifat darajasiga muvofiq bo'lishi kerak;

2. davlat xarajatlarning oshishi muqarrar bo'lgan holatlarga duch kelishi mumkin (epidemiya, infratuzilmani saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmay xarajatlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish), davlat daromadlari cheklangan hisoblanadi, xarajatlarni ichki qayta taqsimlash imkoniyatlari esa katta emas. Yoki aksincha, konyunktura daromadlari oshganda, davlat jamg'arma mablag'larni ko'paytiradi;

3. davlat xalqaro moliya-tovar bozorlaridagi holatdan yoki boshqa qulay omillardan kelib chiqib, o'z oldiga jadal texnik va iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini qo'yadi.

Shuning uchun ham barcha mamlakatlar byudjetning muvozanatini xarajatlari qismi ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda ta'minlaydilar, ya'ni: saldo ijobiy bo'lganda – oltin-valyuta zaxiralarini to'playdilar va kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish maqsadida boshqa moliyaviy jamg'armalarni tashkil etadilar.

O'zbekiston davlat qarzini jumladan, davlat tashqi qarzni boshqarishda ilk marotaba 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining 589-sonli qonuni<sup>1</sup> qabul qilinishi bilan huquqiy asos yaratildi. Keyingi yillarda har yili davlat byudjeti to'g'risidagi qonun qabul qilinib, davlat tashqi qarzining qat'iy belgilangan miqdorlari belgilab borilmoqda. Ammo, ushbu davlat tashqi qarzini belgilangan miqdori ya'ni me'yori mamlakatda doimiy barqarorlikni saqlab turishga to'liq imkon bermaydi. Sababi, iqtisodiyotdagi prognozlar har doim ham turli vaziyatlar hisobiga har doim ham o'zini oqlashi kuzatilmagan. Masalan, 589-sonli qonunning 2-ilovasida 2020-2021-yillarda yalpi ichki mahsulotning o'sishi mos ravishda 5,5 va 5,8 foiz bo'lishi rejalashtirilgan edi. Mazkur prognozlarni belgilashda iqtisodiy inqirozlarning yuz berishi inobatga olinishi murakkab holat hisoblangan. Shu boisdan, 2020-yil birinchi choragidan boshlab jahon iqtisodiyotida COVID-19 (koronavirus kasalligi) yuzaga kelishi bilan iqtisodiy inqirozning yuzaga kelishi boshlandi. 2020-yilda qarz inqirozidan o'zgacha tusga ega bo'lgan, boshlanishidan iqtisodiy xususiyat kasb etmagan inqiroz omili – bu pandemiya ekanligini kuzatishga to'g'ri kelmoqda. Natijada, iqtisodiy qulashlarning yuz berishi bo'yicha ayrim siganallar yuzaga keldi. Bulardan asosiysi - yalpi iste'molning tushib ketishi va yalpi taklifning to'xtashi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur iqtisodiy inqirozning eng asosiy belgisi sifatida iqtisodiy harakatsizlikni keltirish mumkin. Bunday sharoitda, davlatlarning asosiy vazifasi – minimal iqtisodiy harakatni ta'minlab turishdan iborat bo'lishi lozim<sup>2</sup>. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qat'iy ravishda bir moliya yili uchun davlat tashqi qarzi summasini belgilash to'liq makroiqtisodiy barqarorlikka imkon bermasligi mumkin. Fikrimizcha, yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat tashqi qarzini jalb qilish miqdori belgilanishi iqtisodiy pasayish davrida tashqi qarzning miqdorini ham uyg'un ravishda pasayishiga olib keladi. Ikkinchidan, ushbu usulning amaliyotga joriy etilishi mamlakatdagi iqtisodiy o'sish kutilganidan ham yuqoriroq bo'lgan taqdirda, davlat tashqi qarzini jalb qilinish miqdorini ham oshirishga imkon beradi. Demak, davlat tashqi qarzini moliya yili mobaynida jalb qilish chegarasini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, YalMga nisbatan foizlarda belgilanishini amaliyotga joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish mumkin hisoblanadi.

Tashqi qarz deganda mamlakatning xorijiy kreditorlar oldidagi qarzlarning umumiy miqdori tushuniladi. U davlat va xususiy qarzlarni, masalan, kreditlar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Tashqi qarzni samarali boshqarish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi uchun juda muhimdir. Quyida tashqi qarzni boshqarish bo'yicha bir nechta asosiy fikrlar keltirilgan:

1. Qarz barqarorligi: Mamlakat uchun uning tashqi qarzi barqarorligini ta'minlash muhim, ya'ni uni sezilarli moliyaviy qiyinchiliklarga olib kelmasdan to'lash mumkin. Bu mamlakatning qarz majburiyatlarini bajarish uchun yetarli daromad olish va eksportdan tushum olish qobiliyatini baholashni o'z ichiga oladi.

2. Qarz olish strategiyasi: Hukumatlar qarz olish narxi va shartlarini optimallashtirish uchun o'zlarining qarz olish strategiyasini diqqat bilan ko'rib chiqishlari kerak. Bunga ko'p tomonlama institutlar yoki kapital bozorlari kabi turli moliyalashtirish manbalarini baholash hamda tegishli kredit shartlari va foiz stavkalarini tanlash kiradi.

3. Xavflarni boshqarish: Tashqi qarz bilan bog'liq risklarni boshqarish juda muhimdir. Bu valyuta kurslarining o'zgarishi, foiz stavkalarining o'zgarishi va mamlakatning qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan iqtisodiy zarbalar bilan bog'liq risklarni kuzatish va yumshatishni o'z ichiga oladi.

4. Qarzni qayta tuzish va muzokaralar: Mamlakat tashqi qarzini to'lashda qiyinchiliklarga duch kelgan hollarda, qarzni qayta tuzish va muzokaralar zarur bo'lishi mumkin. Bu qarz yukini engillashtirish va mamlakatning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun kreditorlar bilan kredit shartlarini qayta muhokama qilishni o'z ichiga oladi.

5. Oshkoralik va javobgarlik: Tashqi qarzni boshqarishda shaffoflik kreditorlar va investorlar o'rtasida ishonch va ishonchni mustahkamlash uchun juda muhimdir. Hukumatlar qarz darajalari, muddatlari va to'lov jadvallari haqida to'g'ri va o'z vaqtida ma'lumot berishlari kerak.

Umuman olganda, tashqi qarzni samarali boshqarish mamlakat qarzining barqarorligini va uning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlashini ta'minlash uchun puxta rejalashtirish, monitoring va risklarni baholashni o'z ichiga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.

2. Shernaev, A. A. (2021). Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Студенческий вестник, (20-14), 74-76.

3. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.

4. Shernaev, A. A. (2021). Sog 'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari. *Интернаука*, (20-7), 58-60.
5. Шернаев, А. А. (2020). Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. *Интернаука*, (12-2), 43-45.
6. Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich, Urozov Fakhriddin Isokovich, & Shomurotov Ulugbek Melikmurodovich. (2023). Formation of Ideas About Marriage to Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 18, 71–73. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3562>.